BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARINI IJODIY MATN TUZISHGA O‘RGATISH STRUKTURASI

Abdikayumova Nigora Muhiddin qizi
GulDPI “Boshlang‘ich ta`lim” yo‘nalishi 3-bosqich talabasi
Baxtiyorova Umida G’ayrat qizi
GulDPI “Boshlang‘ich ta`lim” yo‘nalishi 3-bosqich talabasi

Annotatsiya: ushbu tezisda boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini ijodiy matn yaratish qoidalari bilan tanishtirish, matn yozishga o‘rgatish, matnni mazmunli va to‘g‘ri yozilishi haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Ona tili o‘qish savodxonligi, o‘quvchi, DTS, matn.

Abstract: This thesis talks about introducing primary school students to the rules of creating creative text, teaching them to write a text, and writing a text meaningfully and correctly.

Key words: native language reading literacy, student, DTS, text.

KIRISH: Barchamizga ma’lumki, insonning boshqa jonzotlardan ustun sanalishiga asosiy sabab aql, ilm, tafakkur va nutqdir. Shuning uchun ham inson hayotning oliy xilqati sanaladi. Biroq inson o‘z vazifalarini bekam-u ko‘st amalga oshirishi uchun ma’lum e’tiqodga ega bo‘lishi, o‘z umrining asl mohiyatni anglashi lozim bo‘ladi. Buning uchun esa insonga yaxshi ta’lim va

ma’naviy tarbiya olish zarur sanaladi. Xo‘sh, ma’naviy tarbiya nima? Inson tarbiyasida ma’naviy tarbiya juda muhim. Ayniqsa, hozirgi shiddatli davrda insonning ma’naviy tarbiyasi juda ko‘p narsani belgilaydi. “Bolalarimizni bog‘cha yoshidan, boshlang‘ich sinflardan kichik-kichik kitoblarga o‘rgatish, shu orqali ularni kitobsevar etib ulg‘aytirish zarur. Shundagina jamiyatimizda kitobxonlik muhiti shakllanadi, boshqalar ham kitob o‘qishga qaytadi”, deb ta’kidlaydi Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev o‘z ma’ruzalarida. Shu sababli boshlang‘ich sinf o‘qish darslari o‘quvchilarga samarali ma’naviy tarbiya berishning eng optimal shakli bo‘lib xizmat qilishi va xalq ta’limi tizimining boshlang‘ich davridan boshlab bu ishlar to‘laqonli amalga oshirilishi lozim. Ma’naviy tarbiyaning asosida qalb tozaligi yotadi. Shuning uchun ham yosh avlodga ma’naviy tarbiya zarur. Inson qaysi jamiyatda yashashidan, qaysi kasb bilan shug‘ullanishidan qat’iy nazar, u o‘z insoniy burchi sifatida oilasini moddiy jihatdan to‘kis etib ta’minlashi uchun dunyoviy ishlar bilan shug‘ullanishga majbur. Chunki, insonning moddiy ehtiyojlari doimiy ravishda o‘sib boradi. Ota-bobolarimiz bolalarini halol-pokiza turmush kechirishlari uchun ularga yoshlikdan kasb va hunar sirlarini o‘rgatish bilan birga ularga odob va tarbiya berishgan. Chunki insonning iymon va ma’naviyati mukammal bo‘lsa, u nopok yo‘lga yurmaydi. Shu bilan birga topilgan mablag‘ va mol-u dunyosi halol bo‘ladi. Birovning haqqiga xiyonat qilmaydi.

Matn (lotincha: textus — mato; birikma) — ma’lum moddiy tashuvchiga bog‘langan inson fikri; belgilarning umumiy izchil va to‘liq ketma-ketligi.Matn“ tushunchasining ikkita asosiy talqini mavjud: immanent (kengaytirilgan, falsafiy qarashlarga yo‘g‘rilgan) va reprezentativ (asosan, xususiy munosabat aks etgan). Immanent yondashuv matnda voqelikka xolis munosabat bildirib, uning ichki tuzilishini uchinchi shaxs tomonidan yoritishga e‘tibor qaratishni nazarda tutadi. Reprezentativ yondoshuv esa, matnni tashqi voqelik haqidagi ma’lumotni taqdim etishning maxsus shakli sifatida ko‘rib chiqishni anglatadi.

Tilshunoslikda „matn“ atamasi keng doirada, jumladan, og‘zaki nutq namunalarida ham qo‘llanadi. Matnni idrok etish matn lingvistikasi va psixolingvistika doirasida o‘rganiladi. I.R.Galperin matn xususiyatlari haqida to‘xtalib o‘tar ekan, unga quyidagicha ta’rif beradi: „Matn bu yozma hujjat shaklida ob’ektivlashtirilgan, turli xil leksik, grammatik va mantiqiy bog‘lanishlar bilan birlashtirilgan bir qator bayonotlardan tashkil topgan, axloqiy xarakter, pragmatik munosabat va shunga mos ravishda adabiy qayta ishlangan ma’lum bir xususiyatga ega bo‘lgan yozma xabardir“. Matn, o‘ziga xos tarzda, bir nechta jumlalardan tarkib topadi. Keng yoritilgan, murakkab hajmga ega bo‘lgan bir jumladan iborat yozuvni matn deb atash mumkin emas. Chunki matn bir nechta mustaqil gapga ajralishi mumkin, bunda gap bo‘laklari matnga emas, balki murakkab gapning sintaksis qonunlariga ko‘ra birikadi.

Matnning semantik yaxlitligi mavjud voqelikdagi bog‘lanish va bog‘liqliklar (ijtimoiy hodisalar, tabiat hodisalari, inson, uning tashqi ko‘rinishi va ichki dunyosi, jonsiz tabiat obyektlari va boshqalar)ni aks ettiradi.Nutq predmetining birligi gapning mavzusidir. Mavzu esa matnning semantik o‘zagi, uning ixchamlashtirilgan va umumlashtirilgan mazmunidir. „Matn mazmuni“ tushunchasi nutqning axborot mazmuni kategoriyasi bilan bog‘liq jarayon bo‘lib, faqat matnga xosdir. U o‘quvchiga hodisalar o‘rtasidagi bog‘liqlikni, ularning barcha sohalardagi ahamiyatini muallifning individual munosabati orqali xabardor qiladi, unga semantik yaxlitlik beradi.Katta matnda yetakchi mavzu bir qator kichik tarkibiy mavzularga, kichik mavzular esa o‘z navbatida paragraflar (mikro-mavzular)ga bo‘linadi. Matnda bayon qilinayotgan fikrning to‘liqligi matnning semantik yaxlitligi bilan bog‘liq bo‘lib, to‘liq tugallangan, yaxlit tugal mazmunga ega matn mazmunni to‘liq aks ettiruvchi sarlavhani tanlash orqali amalga oshiriladi.Shu tariqa matnning semantik yaxlitligidan uning quyidagi xususiyatlari kelib chiqadi: Matn — bu ma’lum bir mavzudagi bayonot;

Matn so‘zlovchining niyatini, asosiy g‘oyasini ifodalab beradi; Har qanday hajmdagi matn nisbatan avtonom (to‘liq) bayonotdir; Matnda gaplar mantiqiy jihatdan bog‘langan bo‘ladi; Matn uchun uning mazmuniga mos sarlavha tanlash mumkin; To‘liq matn odatda boshlanish va yakunga ega bo‘ladi. Mantiqiy bo‘lgan minimal matn yozuv deb ataladi. Bundan tashqari, bunday matnni eslatma deb atash mumkin.

Matnni 2 xil tasvirlash mumkin: 1) so‘z bilan tasvirlash; 2) grafik tasvirlash. So‘z bilan tasvirlash o‘ziga xos murakkab ish turi bo‘lib, unda manzarani so‘z yordamida aniq qayta tiklash talab etiladi. Bunda so‘zlarni aniq tanlashga e’tibor qaratiladi. Turli tabiat manzaralarini, qatnashuvchi k ishilarning tashqi ko‘rinishini, voqyea sodir bo‘lgan joylarni tasvirlash topshiriq qilib berilishi mumkin. Matnni so‘z bilan tasvirlashga o‘rgatishni darslikda berilgan rasmni matndagi shu rasmga mos qism bilan taqqoslab tasvirlashdan boshlash kerak.

So‘z bilan tasvirlash bosqichma-bosqich, maxsus tayyorgarlikdan so‘ng amalga oshiriladi:

1. Matndan manzara, vaziyat yoki qahramonlarning tashqi ko‘rinishi tasvirlangan o‘rinlar aniqlanadi.

2. Nisbiy tugallangan o‘rinlar ajratiladi.

3. Tasvirlashga leksik-uslubiy tayyorgarlik ko‘riladi, ya’niyozuvchi, shoir qo‘llagan lug‘aviy birliklarga o‘quvchilar diqqati tortiladiva ular tahlil qilinadi. Tasvirlashda so‘zni aniq tanlashga yordam beradi.

4. So‘z bilan tasvirlashga o‘rgatishning dastlabki paytida doskaga foydalaniladigan so‘zlar yozib qo‘yilishi zarur. So‘z bilan tasvirlash qayta hikoyalashga aylanib asligi lozim.

Grafik tasvirlash ko‘proq uyda bajariladi. Buning uchun o‘quvchilar tasvirlanadigan matn qismini ajratadilar, uni diqqat bilan o‘qib chiqadilar, mazmunini o‘zlashtiradilar va unga mos rasm chizadilar.Bunda o‘quvchilar bilan qanday ranglardan foydalanish, ranglar ifodalaydigan ma’nolar bo‘yicha suhbat o‘tkaziladi. Rasmlar ko‘rgazmasi tashkil etiladli. Har bir rasm muallifi o‘zi chizgan rang tasvirini izohlab beradi. Kompyuterlashtirilgan sinflar grafik tasvirlashda sinfda bajartirilishi mumkin. Bunda o‘quvchilarning ijodiy yondashuvlariga imkon beriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoyev Sh.M. Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ibot qilish bo‘yicha komissiya tuzish to‘grisida. // Prezident Farmoni. “Xalq so‘zi” gazetasi, 2017-yil 13-yanvar. – № 9. – 1-b

2. Boshlangich sinflarda ona tilini o‘qitish metodikasi (Maruzalar matni) 2-qism, G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh, – T.: 2002.

3. Ikromova R., G‘ulomova X., Yo‘ldasheva Sh., Shodmonqulova D. Ona tili. 4-sinf uchun darslik. – Toshkent: O‘qituvchi, 2011.

4. Abdurahmonova E., Grammatika imlo va nutq o‘stirishda tarqatma materiallar.-T.: 1996

5. Almamatov T. Yadgorov Q, Pochchayeva G. O‘zbek tili o‘qitish metodikasi metodik qo‘llanma. Jizzax - 2006

6. Fuzailov S., Xudoyberganova M., Yo‘ldosheva Sh., Ona tili,3-sinf.- T.:2019

7. Ikromova R., Gulomova X., Yo‘ldosheva Sh.,. Shodmonqulova D, Ona tili, 4-sinf uchun, T.,2020